

X-XIII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIGA BIR NAZAR.

Qarshi Axborot texnologiyalari
va menejment universiteti
2-bosqich talabasi

Ergasheva Marjona Xidir Qizi

Annotsiya: Ushbu maqolada X-XII asrlarda O'zbekiston hududida hukm surgan davlatlar Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar haqida so'z yuritiladi. Davlatlarning siyosiy boshqaruvi, iqtisodiy rivojlanishi va madaniy hayotiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu davrda Movarounnahr va Xuroson ilm-fan va savdo-sotiq markaziga aylangan bo'lib, islom madaniyatining taraqqiyotiga kata hissa qo'shilgan. Maqola o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek davlatchiligi, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Movarounnahr, Buxoro, Samarqand, Urganch, Islom madaniyati, ilm-fan, iqtisodiy rivojlanish, hunarmandchilik, Chingizxon bosqini.

Kirish

X-XII asrlarda O'zbekiston hududida bir necha yirik davlatlar hukm surgan. Bu davr siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim o'rinn tutadi. Markaziy Osiyoning o'ziga xos tamaddudini shakllantirishga xizmat qilgan. Somoniylar davlatini o'zbek davlatchiligining muhim bosqichlaridan biri deb hisoblash mumkin. Ular islom madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan. Somoniylar sulolasi ajdodlari Balx viloyatidan bo'lib, Somonxudot nomli zodagon bu sulolaning asoschisi hisoblanadi. Somonxudotning avlodlari dastlab Abbosiy xalifalariga sodiq xizmat qilgan bo'lsada, keyinchalik ular mustaqillikka erishdi. IX asr boshlarida Abbosiy xalifaligi Somoniylar oilasining vakillariga Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Xuroson viloyatlarini boshqarish huquqini berdi.

Somoniylar davlati Markaziy Osiyoning eng muhim tarixiy davlatlaridan biri bo‘lib, uning merosi hozirgacha sezilarli darajada saqlanib qolgan. Bu davlatning eng katta yutug‘i shundaki, u faqat harbiy yoki siyosiy jihatdan emas, balki ilm-fan, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida hamkatta o‘zgarishlarga yo‘l ochdi. Somoniylar davlatining eng muhim jihatlaridan biri uning madaniy va ilmiy yutuqlaridir. Masalan, Ibn Sino, Beruniy va Rudakiy kabi olimlarning aynan shu katta ahamiyat berib, olimlar va shoirlarni qo‘llab quvvatlagan. Agar Somoniylar davlati barham topmaganida, ehtimol Markaziy Osiyo ilm-fan rivojida yanada ilgari ketgan bo‘larmidi. Bundan tashqari, Somoniylar davlatining iqtisodiy va savdo davrda yetishib chiqishi bejiz emas. Somoniylar hukimdonlari ilm-fan va adabiyotga sohasidagi muvaffaqiyatlarga erishdi.

Ular Ipak yo‘li orqali Xitoy, Hindiston va Vizantiya bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yib, Buxoro va Samarcandni jahon miqyosidagi markazga aylantirgan. Bugungi kunda ham bu shaharlar madaniy va tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, sayyoohlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Shu bilan birga, Somoniylar davlati barham topganining asosiy sababi ichki nizolar va harbiy zaiflik bo‘lgan. Bu tarixiy saboqdan kelib chiqib, har qanday davlat faqat tashqi dushmanlardan emas, ichki ziddiyatlardan ham ehtiyot bo‘lishi kerakligini tushunish mumkin. Agar Somoniylar hukimdonlari ichki birlikni saqlab qolganida, ehtimol ular yanada uzoqroq hukimronlik qilishlari mumkin edi.

Somoniylarning kuch – qudrat va shon-shuxratga to‘lgan davrlari IX asr oxirlarida boshlangan ammo mintaqalik boshqa bir siyosiy kuch - qoraxoniylar bilan kurashga dosh berolmay inqirozga yuz tutganlar. X asr davomida siyosiy boshboshdoqlik avjiga chiqib markaziy xokimiyat mavqeyiga putur yetadi. “Daraxtning boshini qurt yeydi” deganlaridek, somoniylar zARBining pasayishi mintaqaning Yettisuv va Qoshg‘ar qismida boshqa bir siyosiy sulola – qoraxoniylarning kuchayib borishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgandi. Natijada X asr oxirida xokimiyat ularning qo‘liga o‘tadi.¹

¹ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi, Toshkent. “Sharq”. 2001-y. B.94.

Qoraxoniylar davlati IX asrning oxiri va X asirning boshlarida Markaziy Osiyoda tashkil topgan. Qoraxoniylar 840-yilda Uyg'ur xoqonligining tanazzulidan so'ng kuchayib, X asr boshlarida Somoniylar hukmronligiga qarshi kurash olib bordilar. 999-yilda Nasr ibn Ali Buxoro shahrini egallab, Somoniylar davlatiga barham berdi va Mavarounnahrni o'ziga bo'ysundirdi. Somoniylar ta'sirini yo'q qilib tarixida o'ziga xos o'rinn tutgan davlatlardan biri Qoraxoniylar xoqonligi edi. Davlatning barpo bo'lishida qarluq, chigil, yag'mo kabi yirik turkiy qabilalar yetakchilik qilgan. Ikki og'iz so'z "qoraxon" atamasi to'g'risida. Bu yerda "xon" malum tushuncha, yani "xukimdar". "Qora" ning (aslida esa "Qaro") bir necha manoda qo'llanilishini takidlagan xolda, biz ko'rayotgan misolda "buyuk", "ulug'" tushunchasini beradi, desak xato bo'lmaydi, yani "Buyuk xon", "Ulug' xon"².

Qoraxoniylar davlati hozirgi O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Sharqiy Turkiston hududlarini qamrab olgan. Davlat boshqaruvi sulolaviy monarxiya asosida edi. Davlat boshlig'i xoqon yoki bug'roxon deb atalgan. Davlat ikki qismga – G'arbiy va Sharqiy Qoraxoniylar hukmronligi ostidagi hududlarga bo'lingan. G'arbiy Qoraxoniylar (1040-1212)-Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xo'jand va Farg'ona viloyatlarini o'z ichiga olgan. Sharqiy Qoraxoniylar (1042-1211)-Qashg'ar, Yettisuv, Uchturfan va boshqa hududlarni o'z ichiga olgan.

Davlat boshqaruvi sulola a'zolari o'rtasida bo'linib, har bir hududni alohida hukmdor xon yoki to'g'ril boshqargan. Bu esa davlatni zaiflashtirib, ichki nizolarga sabab bo'lgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida islom dini rasman qabul qilindi. 960-yilda Satuq Bug'roxon islomni qabul qilib, butun davlat hududida islomni yoydi. Bu davrda ilm-fan va madaniyat rivojlandi, arab va fors tillari bilan bir qatorda turkiy til ham davlat boshqaruvida va madaniy hayotda muhim o'rinn egalladi³.

Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib kabi olimlar shu davrda ijod qilgan. Shuningdek, Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyoda turkiy yozuviy an'analar rivojlangan davr ham bo'ldi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida

² Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi, Toshkent. "Sharq". 2001-y. B.104.

³ Samarov R.S., Yuldashev M.M. "O'zbekiston tarixi VIII "Toshkent" Ma'nnaviyat ".2023-y. B.167.

turkiy tillarning o‘ziga xosligini ilmiy asosda tadqiq qilgan bo‘lsa, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida davlat boshqaruvi va adolat haqida falsafiy fikrlarni ilgari surgan. Bular turkiy madaniyat va til taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Bolasog‘un, O‘zgan, Samarqand va Buxoro bu davrda muhim siyosiy va madaniy markazlari bo‘lib xizmat qilgan.

Qoraxoniylar davlati Markaziy Osiyoda muhim o‘rin tutgan, chunki u turkiy davlat sifatida islomni qabul qilgan va bu hududda islom madaniyatini tarqatgan birinchi sulola hisoblanadi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida islom dini davlat dini sifatida qabul qilindi. Sotuq Bug‘roxon birinchi bo‘lib islomni qabul qilgan turkiy hukmdor hisoblanadi. Bu jarayon Qoraxoniylar davrida madaniy va iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Shaharlar rivojlandi, karvonsaroylar, masjidlar va madrasa kabi ta’lim muassasalari qurildi. Bu davlat Somoniylardan keyin kelib, islom va turkiy madaniyat sintezini yaratgan. Lekin Qoraxoniylar davlatining zaif jihatni ichki nizolar va hokimiyatning bo‘linib ketishi bo‘ldi. Bu esa saljuqiylar va Qoraxitoylarning hujumlariga yo‘l ochdi. Agar davlat yagona markazlashgan tuzilishiga ega bo‘lganida, ehtimol, u uzoqroq yashagan bo‘lar edi. Shunday bo‘lsada Qoraxoniylar davlatining tarixi va merosi bugungi Markaziy Osiyo davlatlari madaniy va tarixiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davr turkiy xalqlarning islom madaniyatiga qo‘shilgan eng muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. Ayniqsa, islomni qabul qilish va uni davlat siyosatiga aylantirish, shahar madaniyatining rivojlanishi, ilm-fan va adabiyotning yuksalishi bu davrning eng katta yutuqlaridan edi. Biroq, bu davlatning ichki nizolar va sulola o‘rtasidagi kurashlar sababli tez zaiflashgani achinarli. Agar Qoraxoniylar ichki barqarorlikni saqlab qolganida va mustahkam markazlashgan davrida boshlangan madaniy va siyosiy jarayonlar boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yganida, ehtimol, ular uzoqroq hukmronlik qilishi mumkin edi. Shunga qaramay, Qoraxoniylar davrida boshlangan madaniy va siyosiy jarayonlar keyinchalik Temuriylar va boshqa yirik davlatlarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davlatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri –

turkiy va islomiy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi bo‘lib, bu jarayon hozirgi Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy va diniy rivojlanishida muhim iz qoldirdi⁴

XII asrga kelib, Qoraxoniylar davlati ichki nizo va sulola o‘rtasidagi kurashlar natijasida zaiflashdi 1130-yillarga kelib, Saljuqiylar g‘arbiy Qoraxoniylarni o‘z nazoratiga oldi. 1211-yilda esa Sharqiy Qoraxoniylar G‘uriylar va Qoraxitoylar tomonidan tor-mor etildi. 1212-yilda Xorazmshoh Alauddin Muhammad Buxoroni egallab, G‘arbiy Qoraxoniylar hukmronligiga barham berdi, so‘ngi Qoraxoni hukmdorini taxtdan tushirdi. Shu tariqa, Qoraxoniylar sulolasini hukmronligi tugadi.

G‘aznaviylar davlati X asr oxirida Somoniylar davlatining zaiflashishi natijasida vujudga kelgan. G‘aznaviylar sulolasini (962-1183) 961- yili somoniylar o‘limidan so‘ng taxtga uning o‘g‘lini o‘tqazish masalasida davlat arkonlari va Alptegin o‘rtasidagi ixtilof natijasida Alptegin somoniylar xonadoni va Movarounnahr bilan aloqani uzishi va G‘azna viloyatida o‘z hukmronligini o‘rnatishi bilan tarixini boshlaydi.⁵ Alpteginning vafotidan (963) so‘ng G‘aznada navbatil bilan Alptegin, Bilgategin, Piriy, Sabuktegin hukmronlik qiladilar. Alptegin somoniylar bilan aloqani uzgan bo‘lishiga qaramay, somoniylar G‘aznada mujassamlashgan siyosiy-harbiy kuchga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Buning yaqqol isbotini Sabuktegin va somoniylar Nux III (976-997) o‘rtasida Kesh atrofida bo‘lib o‘tgani uchrashuv yoki bo‘lmasa 994-yili somoniylar dushmani Ali Simjuriyning tor-mor etilishida Sabuktegin tutgan asosiy o‘rin orqali ko‘rish mumkin. G‘aznaviylarning rasman siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996-yilga to‘g‘ri keladi¹

Keyinchalik, uning vorisi Sabuqtegin (977-997) G‘aznaviylar davlatining hududini kengaytirib, kuchli harbiy tizim yaratdi. Sabuqteginning o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy (998-1030) davlatning eng qudratli hukmronlaridan biri bo‘lib, Hindistonga 17 marta harbiy yurishlar uyushtirdi va katta hududlarni o‘z davlatiga qo‘shti. Uning davrida G‘aznaviylar davlati Eron, Afg‘oniston, Markaziy Osiyo va Hindistonning katta qismini o‘z ichiga olgan qudratli sultanatga aylandi.

⁴ Samarov R.S., Yuldashev M.M. "O‘zbekiston tarixi VIII "Toshkent" Ma’naviyat ".2023-y. B.167.

⁵ Бунятов.З.М.Избранные сочинения в трех томахю Т.3. – Баку: Елм , 1999.- С. 57.

G‘aznaviylar boshqaruvi markazlashgan monarxiya shaklida bo‘lgan. Hukmdor “sulton” unvonini olib, barcha siyosiy va harbiy qarorlarni qabul qilgan. Viloyatlar mahalliy hokimlar- valiylar tomonidan boshqarilgan. Davlatning iqtisodiy manbalari savdo yo‘llari, yer soliqlari va Hindistonga uyushtirilgan yurishlardan kelgan boyliklar edi. G‘aznaviylarning harbiy qudrati yaxshi tashkil etilgan armiyaga asoslangan bo‘lib, unda turkiy, forsiy va hindiy jangchilar xizmat qilgan. Ularning yurishlari natijasida islom madaniyati Hindiston hududlariga keng tarqaldi.

G‘aznaviylar davrida ilm-fan, adabiyot va san’at rivoj topdi. G‘azna shahri Markaziy Osiyodagi eng yirik madaniy markazlardan biriga aylandi. Bu davrda buyuk olimlar Abu Rayhon Beruniy astranomiya va tarix sohasida muhim asarlar yozgan, Firdavsiy “Shohnoma” dostonini yozib, fors adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shti, garchi bu asar afsonaviy shohlar haqida bo‘lsada G‘aznaviylar saroyida yashagan va Mahmud G‘aznaviyga bog‘liq ba’zi voqealar ham aks etgan. Al-Utbi “Tarix al- Yamin” bu asar G‘aznaviylar davrining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Unda ayniqsa, Sabuqtegin va Mahmud G‘aznaviy davridagi voqealar yoritilgan.

G‘aznaviylarning qudrati Mahmud G‘aznaviydan keyin zaiflashib bordi. Buning asosiy sabablari: Saljuqiylar bilan urushlar 1040- yilda Dandanoq jangida G‘aznaviylar Saljuqiylardan yirik mag‘lubiyatga uchradi. Ichki nizolar- hukmdorlar o‘rtasidagi taxt uchun kurash davlatni zaiflashtirdi. G‘uriylarning hujumlari- XII asrda G‘uriylar G‘aznaviylarni siqib chiqara boshladi va 1186- yilda ularni butunlay tor-mor etdi.

G‘aznaviylar davlati tarixiy jihatdan juda muhim o‘rin tutadi, chunki ular faqat harbiy jihatdan emas, balki madaniy va ilmiy sohalarda ham katta yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, Mahmud G‘aznaviy davrida davlat o‘zining eng qudratli davrini boshdan kechirgan va Hindistonga uyushtirilgan yurishlar orqali islom madaniyatining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Biroq, G‘aznaviylar davlatining zaif tomonlari ham bor edi. Ular davlatni mustahkamlash o‘rniga, juda ko‘p urushlar bilan band bo‘lib, ichki barqarorlikni saqlashga yetarlicha e’tibor bermadilar. Ayniqsa

Saljuqiylar bilan to‘qnashuv va Dandanoq jangidagi mag‘lubiyat ularning inqirozini tezlashtirdi. Agar G‘aznaviylar o‘z kuchlarini faqatgina hududlarni egallashga emas, balki ichki siyosiy barqarorlik va boshqaruvin tizimini mustahkamlshga qaratganida, ehtimol, ular uzoqroq yashagan bo‘lar edi. Shunga qaramay, bu davlat ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘s shgan hissasi bilan tarixda o‘z izini qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, X-XIII asrlar o‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim davr bo‘lib, bu yillar davomida Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari Movarounnahr va unga tutash hududlarda hukimronlik qilgan. Ushbu davlatlar islom madaniyatining mustahkamlanishiga, ilm-fan va hunarmandchilikning rivojlanishiga katta hissa qo‘s shgan. Buxoro, Samarqand va Urganch, kabi shaharlar yirik ilmiy va iqtisodiy markazlarga aylangan. Bu davrda siyosiy barqarorlik bilan birga davlatlar o‘rtasida kurashlar ham davom etgan bo‘lib, bu holat ba’zi davlatlarning inqirozga uchrashiga sabab bo‘lgan. XIII asr boshlarida Chingizzon bosqinlari natijasida bu davlatlar tanazzulga yuz tutdi va mintaqada yangi siyosiy tartib shakllandi. O‘zbek davlatchiligi tarixining ushbu bosqichi Markaziy Osiyoda siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim o‘rin tutgan davrlardan biri bo‘lib, islom madaniyati va ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘s shgan. Har qanday imperianing zavoli ham ta’lim tizimidagi inqiroz bilan bog’liqqa uchraydi. Xususan Rim imperiyasining so’ngi davrida ta’limdagi tushkunlik boshqa davlatchiliklar inqiroziga taalluqligi. Masalan Saljuqiylar imperiyasi inqirozi kadrlar yetishmasligi muhim sabablardan biriga o‘xshaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI .

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi, Toshkent. “Sharq”. 2001-y. B.94.
2. Ahmedov E. – O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo davlatlari- Toshkent: Fan, 2005.
3. Axmedov B. “Xorazmshohlar davlati”. Toshkent: Sharq, 1998. B.25.
4. Bartold V.V. “O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha tadqiqotlar”. Toshkent: Fan, 2002. -280 bet.

5. Буниятов.З.М.Избранные сочинения в трех томахю Т.3. – Баку: Елм , 1999.- С. 57.
6. Qayumov A. – O‘zbekiston tarixi- Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
7. Rashiddin. “Jome at- tavorex”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1990. - 500 bet.
8. G‘afurov B.G. “Tojigiston tarixi”. Dushanbe: Irfon, 1972. -410 bet.
9. Akhmedov, S. (2023). Cooperation of Uzbekistan with Foreign Countries in the Field Of Cinema (Second Half of the Xx Century-Early Xxi Century).
10. Akhmedov, S. (2022). RELATIONS OF UZBEKISTAN WITH FOREIGN COUNTRIES IN THE FIELD OF LITERATURE IN THE 50-80S OF THE XX CENTURY. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 592-595.
11. Akhmedov, S. (2025). THE ROLE OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL SCIENTIFIC RELATIONS. *BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE*, 1(1), 1067-1071.
12. Akhmedov, S. (2025). UZBEKISTAN'S PARTICIPATION IN INTERNATIONAL RELATIONS IN THE 1960S (AN EXAMPLE FROM THE FIELD OF SCIENCE). *EDUCATION AND RESEARCH IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION*, 1(1), 1763-1768.
13. Axmedov, S., & Ergasheva, M. (2024). О ‘ZBEKISTONNING XORIJIY DAVLATLAR BILAN ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARDA ADABIYOT FANINING О ‘RNI (1950-1985 YILLAR MISOLIDA). *Наука и инновации в системе образования*, 3(11), 132-136.
14. AXMEDOV, S. (2025). О ‘ZBEKISTON ILM-FAN RIVOJIDA FANLAR AKADEMIYASINING О ‘RNI. *News of the NUUz*, 1(1.2. 1), 8-10.
15. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
16. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*,(3) (2023): 67-67.

17. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
18. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
19. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIyat IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
20. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIyatda INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, 1(2), 52-58.
21. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIyatda INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
22. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
23. Nomozov, Xurshid (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 229-231.
24. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'linda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 632-636.
25. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROTNING ZAMONAVIY TARKIBI." *Ta'linda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 628-631.

26. Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
27. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
28. Ҳолиқов, F. (2025). ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТИББИЁТ СОҲАСИ БЎЙИЧА ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН АЛОҚАЛАРИ. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR*, 1(7), 45-49.